

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONING BOBLAR BO‘YICHA TAHLILI

Ubaydova Hulkarbegim Asror qizi,

BuxDPI o‘qituvchisi

hulkarbegim@ubaydova

Annotatsiya. Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostoni 1484-yilda yozilgan bo‘lib, jami 54 bob, 5782 baytdan iborat. Mazkur maqolada “Farhod va Shirin”ning boblar bo‘yicha tahlili tadrijiy tarzda ochib berilgan. Maqola quyidagi tarzda tartiblangan: “Farhod va Shirin” dostoning hamd va nat qismi, “Farhod va Shirin”da ulug‘ salaflar ta’rifi va Navoiyning dostonni yozishdan ko‘zlagan adabiy niyati aks etgan boblar, Zamon hukmdori Sulton Husayn Boyqaro va shahzoda Badiuzzamon Mirzo madhiga o‘rin berilgan boblar tahlili, xotimaviy boblar tavsifi.

Kalit so‘zlar: “Xamsa”, “Farhod va Shirin”, hamd va nat qismi, salaflar ta’rifi, Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo, xotimaviy boblar.

Аннотация. Эпическая поэма «Фарход и Ширин», входящая в «Хамсу» Навои, была написана в 1484 году и состоит из 54 глав и 5782 стихов. В данной статье представлен поглавный анализ «Фарход и Ширин». Статья организована следующим образом: хвалебная и одатическая часть эпической поэмы «Фарход и Ширин», главы, описывающие великих предшественников в «Фарход и Ширин» и отражающие литературный замысел Навои при написании эпоса, анализ глав, восхваляющих правителя того времени, султана Хусейна Байкара и принца Бадюуззамана Мирзо, и описание заключительных глав.

Ключевые слова: «Хамса», «Фарход и Ширин», часть гимна и наата, описание предшественников, Хусейн Байкара, Бадюуззаман Мирзо, заключительные главы.

Abstract. The epic poem “Farhod and Shirin”, which is part of Navoi’s “Khamasa”, was written in 1484 and consists of 54 chapters and 5782 verses. This article presents a chapter-by-chapter analysis of “Farhod and Shirin”. The article is organized as follows: the praise and ode part of the epic poem “Farhod and Shirin”, the chapters that describe the great predecessors in “Farhod and Shirin” and reflect Navoi’s literary intention in writing the epic, the analysis of the chapters that praise the ruler of the time, Sultan Husayn Boykaro and Prince Badiuzzaman Mirzo, and the description of the concluding chapters.

Keywords: “Khamasa”, “Farhod and Shirin”, part of the hymn and naat, description of the predecessors, Husayn Baykara, Badiuzzaman Mirzo, final chapters.

Kirish. Alisher Navoiy “Xamsa”siga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostoni 1484-yilda yaratilgan bo‘lib, u o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Asar jami 54 bob va 5782 baytdan iborat bo‘lib, o‘zining kompozitsion tuzilishi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi.

Doston an’anaviy uslubga muvofiq ravishda hamd (Allohga hamdu sanolar) va na’t (Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ga madh) qismlari bilan boshlanadi. Ushbu muqaddima qism 1–5-boblarni o‘z ichiga oladi va asarning ma’naviy-axloqiy yo‘nalishini belgilab beradi. Shu orqali muallif o‘quvchini asarning asosiy g‘oyaviy-badiiy olamiga tayyorlaydi hamda keyingi voqealar rivoji uchun falsafiy zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Navoiy Yaratgandan boshlagan ishida ko‘mak so‘raydi. Doston quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Bix,amdik fatx, abvob ul-maoni,Nasib et ko‘ngluma fatx, o‘lmak oni.Misra ma’nosi: “Ma’nolar eshiklarining ochilishi sening (ya’ni Ollohning) maqtoving bilan. Keyingi

misrada esa, shoir soʻz oʻyini qilib, “fatx” soʻzining ikki maʼnosidan foydalanadi: maʼnolar eshiklarin koʻnglimga “ochib” ber va ularni “zabt” etishni nasib qil”, – deb izohlanadi yigirma jildlik Navoiy asarlarining mukammal toʻplamida. Yaʼni bu bilan ulugʻ shoir oʻzining komil inson haqidagi qarashlari aks ettirilgan “Farhod va Shirin” dostonida *maʼnolar eshiklarining ochilishi Ollohning maqtovi bilan boshlanishini taʼkidlaydi. Oʻz dostonini “Maʼna shu eshikni menga ochib ber va uni zabt etishni nasib et”, – degan ezgu niyat bilan boshlab, Ollohdan koʻmak soʻraydi. Qolgan baytlar tahlili esa quyidagicha:*

Koʻzumga ul eshik quflin radid et,

Aning fatxiga kilkimni kalid et.

Ul eshikning qulfini ochish uchun qoʻlimni kalit et.

Ochib ul ganj kuflin bu kalidim,

Nasibim ayla neki bor umidim.

Ul qulfni kalitim bila ochib, bor niyatimga yetishimni nasib et.

Nechakim istasam naqdi javohir,

Qayon boqsam koʻzumga ayla zohir.

Qancha javohir izlasam, qayerga qarasam ham uni koʻzimga namoyon et. Bu yerda javohir deganda maʼnolar xazinasidan joy olgan tengsiz soʻzlar nazarda tutilmoqda.

Terarga har nafas kurrok havas ber,

Havas bergach olurga dastras ber.

U javohirlarni terish uchun koʻnglimga havas ber, havas bergach uni olish uchun toʻgʻri qoʻl ber.

Bu durlarkim koʻzumni andin ochting,

Mening ilgim bila olamga sochting.

Bu durlar bilan, yaʼni maʼnolar bilan koʻzimni ochting va ularni mening qoʻlim bilan dunyoga sochting.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda “Farhod va Shirin” dostoni boblar boʻyicha tahlil qilishda kompleks yondashuv qoʻllanildi. Asarning badiiy-struktur tuzilishini ochib berishda tarixiy-filologik, qiyosiy-tahliliy hamda matnshunoslik metodlaridan foydalanildi.

Avvalo, matnni oʻrganishda **matnshunoslik metodi** asosiy oʻrin tutdi. Dostonning turli nashrlari va ilmiy izohli manbalari solishtirilib, boblar tarkibi va mazmuniy izchilligi aniqlab chiqildi. Shu orqali asarning kompozitsion tuzilishi, muqaddima va xotima qismlarining oʻzaro bogʻliqligi yoritildi.

Ikkinchi bosqichda **tarixiy-filologik yondashuv** orqali asarning yaratilish davri, Alisher Navoiy ijodiy muhiti hamda “Xamsa” anʼanasi doirasidagi oʻrni tahlil qilindi. Bu yondashuv dostonning gʻoyaviy ildizlarini anglashga yordam berdi.

Shuningdek, **qiyosiy-tahliliy metod** asosida “Farhod va Shirin” boshqa “Xamsa” dostonlari, xususan “Layli va Majnun” hamda “Sabʼai sayyor” bilan qiyoslandi. Bu orqali Navoiy uslubiga xos umumiy va individual xususiyatlar aniqlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida **badiiy-tahliliy metod** ham qo'llanilib, asardagi hamd, na't, munojot, madh va xotima boblarining badiiy funksiyasi, obrazlar tizimi hamda ramziy-majoziy ifoda vositalari tahlil qilindi.

Umuman olganda, mazkur metodlar uyg'unligi "Farhod va Shirin" dostonining boblar bo'yicha ichki tuzilishini, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini va Navoiy ijodidagi o'rnini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. *Bobning qolgan qismida muxtasar qilib quyidagi fikrlar keltirilgan: Unda Navoiy o'zi ochajak yangi bir ma'nolar xazinasi bo'lib xizmat qiluvchi ush bu dostonidan bahramand bo'lishni gadolarga ham, g'anilarga ham, shohlarga ham, qullarga ham nasib etishini, ishq ahlini unga orzumand bo'lib, ular ham bu xazinadan bahramand bo'lishini istab ezgu niyat qiladi.*

2-bobning etiborli jihati shundaki, shu bobdan boshlab shoir dostonidagi barcha boblarga sarlavha qo'yib chiqadi. Mazkur bob sarlavhasida arabcha Olloh so'zi sarvqadlar bo'yiga o'xshash (alif) va binafsha sochlar jingalagiga o'xshash (lom) harflaridan tuzilganligiga ishora beriladi.

Shoir yaratuvchi Xudo maqtoviga kirishar ekan, eng avvalo, u inson ko'nglining ishq gulshani ekanini, va Ollohning bu gulshanda ishqni xazinaga aylantirganligini madx etadi.

Ki, inson ko'nglin etti gulshani ishq,

Bu gulshanning harimin maxzani ishq.

Bu haqida Navoiy "Hayrat ul-abror"ning "Ko'ngil tarifida" bobida ham gapirib, insonni yaratilishidan maqsad bu uning ko'ngli yaratilishi ekanligini ta'kidlagan edi.

Bundan tashqari, mazkur bobda Navoiy *ishq bilan aloqador barcha hayajon va iztiroblar haqida yozib quyidagi misralarni bitadi:*

Bular borini raydo aylagan ishq,

Birin ul birga shaydo aylagan ishq.

Nedin oshikni o'rtar shayni ma'shuq,

Chu oshiq munda keldi ayni ma'shuq.

Bu bobda shoir yozishga kirishayotgan "Farhod va Shirin" dostonining umumiy talqini, undagi qahramonlar, personajlarning muxtasar tavsifini beradi, Navoiy tashbeh san'ati vositasida: "Qazo Farhodi amri rahnamuni" misrasidan to "Kelib kam zarralardin dog' i Xusrav" misrasigacha bo'lgan qismda qazoni Farhodga, osmonni Farhod yo'ngan Besutun tog' iga, aqlni Chin xoqonining vaziri Mulkoroga va Suqrotga, tuni Xusrav Parvezning oti Shabdezga, qadarni Farhodning do'sti Shopurga, ajalni otasini o'ldirgan Parvezning o'g' li Sheruyaga, zamonni Parvezning sozandasi Nigisoga o'xshatgan va muqaddimani dostonning mundarijasiga uyg'unlashtirgan. (Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati).

Bob oxirida shoir o‘z dostoni “Farhod va Shirin”ni minglab mashhur Besutun yodnomalaridan ham yuksak deb ta’riflab, mubolag‘a san’atini qo‘llaydi, ayni choqda faxriya san’atidan ham foydalanadi.

Va gar ming Besutundek qilsang idpok,

Yo‘lida bir kesak, bal bir hovuch xok.

3-bob “Munojot” deb atalsa-da, unda Navoiy insonni yo‘qlikdagi holati, so‘ngra, vujudga kelishi, go‘dakligi, hayoti to‘g‘risidagi fikrlarni bayon etadi. Shoirning inson yaratilgach, iloh ixtiyorida bo‘ladi, u taqdir belgilagan ishlarnigina bajaradi, binobarin, inson yo‘l qo‘ygan xato, gunohlar uchun aybdor emas, unga shularni avvaldan ravo ko‘rgan o‘sha yaratuvchi aybdordir, - deya bildirgan fikrlari uning inson himoyasida nechog‘lik qat’iy turganligini ko‘rsatadi (Qayumov A. “Farxod va Shirin” sirlari).

Taqdirning azal va abadligi haqidagi bunday fikr yana “Hayrat ul abror” da ham uchraydi. “Iymon sharhida” deb atalgan birinchi maqolatida qismatning haqligi haqida gapirilib: “Azaliy yoziq qanday yaxshi va yomon narsa bo‘lsa, o‘shaning hammasi. -Birov mast yoqimsiz ovoz chiqarsa, sozanda dilkash navo chaladi;

-Birov Kaba sari borsa, birov mayxonada o‘tiradi;

-Birovning maskani cho‘l bo‘lsa, birovga fano mayxonasi maskan bo‘ladi. Bularning barchasi Haq tomonidan yozib qo‘yilgan”, – degan fikrlar ilgari suriladi.

Lekin Navoiy yuqoridagidek inson qismatiga Olloh sababchi degan qarashni ilgari surgani holda quyidagi misralar bilan Tangridan yana bir bor ko‘mak o‘tinadi: Ilohiy, boqmagil majnunlug‘img‘a,

Karamdin chora qil maxzunlug‘img‘a.

Yuzum sargortibon nomam qarosi,

Qarortib nomani xomam qarosi.

Inoyat aynidin xomam sari boq,

Qizil ayla yuzum, nomamni ham oq.

Yuzum lutfung suyidin toza qilg‘il,

So‘zum qushin baland ovoza qilg‘il.

Bob nihoyasiga kelib esa Navoiy ilohga murojaat qilib, shu asarni yaratishda madadkor bo‘lishni so‘rash bilan birga, bu yo‘lda Muxammad payg‘ambardan ham shafolat yetishishini istaydi.

So‘zum rohin qilib ravshan safodin,

Shafolat jomi yetkur Mustafodin.

4-bob na‘t, ya‘ni Muhammad payg‘ambar ta‘rifiga bagishlangan. Mazkur bobda Muhammad payg‘ambar sifatleri o‘xshatishlar asosida vasf qilinib, “Ollohning rahmati uning jamolining quyoshi va kamolining soyasicha bo‘lsin”, – kabi go‘zal jumlar keltiriladi.

5-bob “Me‘roj” payg‘ambarning ko‘kka chikishiga bag‘ishlanadi. Asarning 6-7-boblarini Navoiy o‘zidan oldin “Xamsa” yaratgan ustozlari madhiga bag‘ ishlaydi.

6-bob Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviylar ta'rifiga bag'ishlanib, Nizomiy Ganjaviy haqida quyidagi fikrlar ilgari suriladi: "San'atlar hakimi qalamni hech bir tengi yo'q tilsim qilib yaratgan. Uning bu xazinalaridan hech kim Ganjada yashagan xazina sochuvchi Nizomiy Ganjaviy kabi foydalanib, orzulariga yetgan emas. U o'z ko'nglini ma'nolar xazinasiga aylantirgan. Ganjaviy o'zining ko'ngil xazinasiga eshiklarni ikki labidan ochgan bo'lib, bu eshiklarni ochib qolganda undan ne-ne gavharlar sochilmagan. Bu gavharlar butun jahonni xuddi osmonni yulduzlar bosgani kabi bosgan. Ular tuproqqa qo'shib ketadigan, oyoq ostida qolsa, sinadigan gavharlar bo'lmay, shunday gavharlarki, jilva qilganda ulardan odamlarning qulog'i ziynat topadi. Bu ziynatlar quloqqa taqiladigan oddiy ziynatlar emas. Quloqqa kirib joylashib olgan bu durlar qalbgga ham kirib, uni xazinaga aylantiradi. Ular qalbnigina labolab to'ldirib qo'ya qolmay, daryoga solsa, daryoni ham labolab qilib to'ldirishga qodir. Bu durlardan odamlar tinimsiz olib tursa ham, yuz yilda, ming yilda bir ham kam bo'lmaydi". Navoiy bu misralarni bitishda *mubolag'a, ruju, o'xshatish san'atlaridan foydalanib, xamsachilik an'anasini boshlab bergan ulug' shoir Nizomiy Ganjaviy ijodining nechog' liq yuksak bo'lganligini ta'kidlamogda*. Xusrav Dehlaviyga ta'rif berar ekan, Navoiy uning Hindistonlik ekanligini inobatga olib, shunga mos o'xshatishlar qilishga harakat qiladi.

Xususan, Dehlaviyni *shirin so'z to'tiga o'xshatib*: "Yozganlari to'tining ovozasidek butun olamni tutgan", – deydi.

Yana uni *bulbulga, Hindistonni esa odamlarining tana rangini inobatga olib, anbar hidini sochib turadigan muattar tunga qiyoslaydi va*: "Dehlaviy shunday qorong'u kechada uxlamay, suron soluvchi bulbuldur", – deb ta'riflaydi Navoiy. Shuningdek, *uni hamma yerga baraka sochuvchi qora rangdagi ko'klam bulutiga mengzaydi*: "Bu shoir o'z she'rlaridan so'z ipiga durlar tizar ekan, falak dengizi shu durlar bilan faxrlanadi. Yaratgan nazmining qoralamasi unga ko'klam bulutini eslatadi. Bu bulut xalq boshiga dur-gavharlar sochadi. Bu bulutning o'zi ham boshdan oyoq gavharlar orasida bo'lib, bahor buluti singari qoradir. Qo'y, uni qora dema, mushkin bir bulut deb atay qol. Zero, undan tomgan har bir qatra eng toza durga aylanadi". *Bundan tashqari ziyrak nigohli Navoiy o'xshatish qilishda faqat shoirning Vatani nuq'tayi nazaridangina yondashib qolmay, uning yashil ipakdan to'qilgan to'n yopib yurishi jihatiga ham e'tibor qaratadi. Va uni Xizr payg'ambarga o'xshatib*: "Zulmat ya'ni Hindiston aro o'zining ravon so'zlari bilan hayot bulog' ini topgan shoir", – deb ataydi.

Yana Navoiyning quyidagi mashhur misralari ham aynan ush bu bobdan o'rin olgan:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.
Tutaykim qildi o'z changini ranja,
Nekim urdi aning changiga panja.
Kerak sher ollida ham sheri jangi,
Agar sher o'lmasa, bori falangi.

Dostonning 7-bobi Navoiyning bevosita ustoz bo'lgan zot Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag' ishlanadi: "Xusrav bilan Nizomiy ikki pil(fil) bo'lsa, Jomiyning bir o'zi yuz pil chog'liq bor. Muhabbat jomini oxirigacha sipqaragan va o'sha katta pillardan oramizda tirik yurgani ham Zinda Pili Ahmadi Jom ham shudir. Uni vahdat mayidan g'oyat mast bo'lgan holda ko'rib, unga ana shu "Zinda Pil" laqabini berganlar", – degan fikrlar ilgari suriladi.

Dostonning 8-bobida esa Navoiy "Farhod va Shirin"ni yozishi uchun nimalar sabab bo'lgani haqida so'z yuritib, uch sababni keltirib o'tadi.

Bulardan birinchisi sifatida u o'z ko'nglida shunday bir asar yozish orzusi tug'ilganligini aytib, bu orzu uni hatto Balo tog' iga zo'rlik ko'rsatish-u, chimchaloq uchi bilan qattiq toshlarda zovur qazishga ham majbur qilishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Ikkinchi sabab sifatida esa dostonning ilgarigi shakliga bir oz o'zgartirish kiritib, uning tasviri yana ham dilkash bo'lishini ta'minlash istagi borligi qayd etiladi.

Doston yozilishining uchinchi sababi qilib, Navoiy o'z ko'nglida jonni o'rtovchi ishq o'ti paydo bo'lgani va mashuqasining sitamlari unga zo'rlik qilib, bu sevgini ta'riflashga tili loligi, shu sabab o'z ahvoli sharhini shu doston orqali ifodalashga kirishganligini qayd etadi.

Xo'sh, Navoiy qalbini bu darajada o'rtagan, uni Mujnun holiga yetkazgan malak kim edi? Asarda keltirilgan: "Ul malak ichkisi kelsa, shafaq rangli mayga qo'l uzatardi, qultum-qultum ichib quyosh piyolasini sindirardi", "Unga vafosiz, ta'bsiz noahillar xush ko'rinar, u vafoli, tab'li odamlarni xush ko'rmas edi. Ul pari har qanday dev uchun ko'z yoshi to'kar edi", "Ul oy jahonni kezib, har yerda bo'lib, kechalari uxlamay sayoqlik qilardi. Meni g'am-u azob-uqubattan munis qilib o'zi har uyda majlisning shami bo'lib yurardi", – *kabi g'azallardagi lirik qahramonni azobga solgan ma'shuqalar ta'rifini eslatuvchi jumlarladan kelib chiqib aytish mumkinki, Navoiy bu yerda ilohiy ishqni nazarda tutmoqda.* Mutafakkir "Layli va Majnun" dostonida ham xuddi shu ishq haqida to'xtalib, o'zini: "Ishq yo'l boshchisi", – deb ataydi va bu dardning sitamlaridan voqif ekanligini ta'kidlaydi.

9-bobda Navoiyning asar rejasini tuzib olgani, tarixiy manbalarni ko'rib chiqqani, shu mavzuda yozilgan dostonlarda yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatib, o'z g'oyalarini qay tarzda ifoda etmoqni niyat qilgani bayoni keltiriladi. Bu bobni yozishga kirishar ekan Navoiy xamsachilikdek yuksak an'anani davom ettirishida o'zining yulduzdek kulib turgan toleyi sababchi bo'lganligini yana bir bor qayd etadi va bu yuksak vazifaga kirishishdan oldin o'z oldiga shu mavzuda bitilgan dostonlar, tarixiy manbalarni to'liq o'rganib chiqishni maqsad qilib qo'yadi. Bu xususda: "Uy qurishdan avval unga atab bir mato to'qiginki, u bilan imorat yanada chiroy ochsin", – deydi. Shu o'rinda, u nima maqsadda tarixiy manbalarga qo'l urganligi sababini ham izohlab, "Shoyad, sen ulardan bu haqida yozib o'tgan kishilarning ko'zi tushmagan bir necha so'zlarni topib olsang, sen nazm qilgan

narsaning rejasi tamoman yangi bo'lsa, o'qigan odamlarning ham rag'bati unga cheksiz ortib boradi", – deydi va quyidagi misralarni keltiradi:

Ani nazm etki tarxing toza bo'lgay,

Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay.

Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq,

Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.

Bundan tashqari, boshqalar qilgan ishni takrorlash unga yarashmasligini qayd etib, odamlar bosib o'tgan yo'ldan ot choptirib o'tishdan, gullari bir bora terilgan chamandan gul uzishdan foyda yo'qligini ta'kidlaydi. Shundan so'ng ushbu mavzuda yozilgan dostonlarda yo'l qo'yilgan xatolarni sanab o'tadi va ishq ahli haqida yozilajak bu dostonni tubsiz dengizga o'shatib, o'zidan oldin bu nazm dengiziga sho'ng'iganlar faqat ba'zi bir durlarnigina qo'lga kiritganini, ne-ne qimmatli durlar esa u yerda qolib ketganini endi o'zining shu qolgan durlarni ham terib olib, bu dilrabo asarga bezak qilganini aytadi. Salafning ushbu dostonni qaytarzda bitganlarini birma-bir tavsiflab chiqadi va ular o'z dostonlarini badiiy jihatdan nihoyatda go'zal bitganlarini ta'kidlagan holda, ulardagi eng katta kamchilik sifatida ishqda beqaror Xusravni bosh qahramon darajasiga ko'targanliklarini e'tirof etadi. Ular "Xusravning mamlakati andog' undagi rasm-rusmlar mundog', qo'shinlarining adog'i undog'-u, unda mavjud imkoniyatlar mundog' deb", – Xusravning maddohiga aylanib qolganlarini qoralaydi, unda moyayi dard yo'q deydi. Navoiy bir tanda ham shohlik, ham oshiqlik sig'a olmaydi deb hisoblaydi va shuning uchun ham Xusravni emas aynan Farhodni bosh qahramon darajasiga ko'taradi.

Bundan tashqari, Navoiy oldingi xamsanavislar ijodiga birma-bir to'xtalib o'tganligining sababini izohlab: "Shoir Xusrav bu rango-rang afsonani hikoya qilar ekan, o'zidan oldingi Nizomiyni so'zining avvalida eslatib o'tadi. Menga ham bu juda ma'qul tushdi. O'zimdanda oldingi Farhod dostonini yozganlar to'g'risida bir-ikki o'g'iz gapirib o'tishni lozim topdim. Axir, bir so'zning boshini bilmaganlarga oxirini ming aytgan bilan masalani tushuntira olmaysan", – deydi.

Umuman olganda, "Farhod va Shirin" da ham an'anaviy boblar uchrasa-da, shoirning badiiy mahorati sabab "Xamsa" dagi dostonlar tarkibida keluvchi hadm, nat, munojotlarning bir ikkinchisini takrorlamaydi. Ularni sinchiklab o'qiganda har biri o'zgacha jiloga ega ekani, o'zaro farqlanishi, biri boshqasini to'ldirishini his etish qiyin emas.

10-bobda zamon hukmdori Sulton Husayn Boyqaro va 11-bobda shahzoda Badiuzzamon Mirzo madhiga o'rin beriladi.

10- bob zamon hukmdori, Navoiyning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro ta'rifiga bag' ishlanadi. *Navoiy ma'rifatparvar inson sifatida odiy xalqning farovon, tinch yashashini va bu niyatga erishish uchun xalq g' amini yeydigan odil podshoh zarurligini yaxshi anglardi va doimiy ravishda hukmdorni yaxshi amallar qilishga undardi. Buning natijasi o'laroq, Husayn Boyqaro temuriy rahnamolar orasida salkam qirq yil hukmdorlik*

qilgan, davlatni adolat bilan boshqargan podshohga aylandi. Uning davrida mamlakat barbarqarorligi birmuncha ta'minlandi, maorif, madaniyat yuksaldi, adabiy-ijodiy muhit uchun juda yaxshi sharoit yaratildi, natijada ayni shu davrga kelib Xuroson madaniyat o'choqlaridan biriga aylandi. Mazkur bobda mana shu jihatlar haqida so'z yuritiladi va quyidagi kabi misralar keltiriladi:

Nabi shar'iga bergan zeb-u zayn ul,

Salotin sarvari Sulton Husayn ul.

Zixi olam – sadaf, zoti – duri pok,

Aning dekkim, quyosh durriga aflok.

Keyingi baytlarda Husayn Boyqaro qudratlilikda podshoh Jamshidga, jang-u jadallardagi bahodirlikda hazrat Aliga, nasl-nasbining pokligi jihatdan "Shohnoma"da zikr etilgan kayunlar sulolasiga tenglashtiriladi. 11-bob yuqorida takidlanganidek, shahzoda Baddiuzzamon Mirzoga bag'ishlanadi. U Husayn Boyqaroning katta o'g'li bo'lib, Alisher Navoiy bu shaxzodaga katta umidlar bog'lagan edi. U bilan Sulton orasida nizolar paydo bo'lganida Navoiy ularni murosaga keltirish uchun, o'g'ilning ota izmida bo'lishi uchun tinmay harakat qilgan edi. Navoiyning "Munshaot" tarkibidagi qator maktublari, dostonlaridagi bag'ishlovlar bu fikrga dalildir. *Ulug' Navoiy ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlar yaxshi bo'lishi, ular orasida hech qanday nizoga o'rin bo'lmasligi kerakligi tarafdori bo'lgan va shu yo'lda qo'lidan kelgancha harakat qilgan. "Farhod va Shirin" dostoni asosiy voqealar bayonining aynan Husayn Boyqaro va uning o'g'li Baddiuzzamon Mirzo ta'riflaridan so'ng berilishida ham qaysidir ma'noda ramziylik bor. Asarda Farhod va uning otasi o'rtasidagi munosabatlar ularga o'rnak sifatida keltirilgandek ko'rinadi. E'tibor bilan qaraladigan bo'lsa, birgina bu dostonida emas "Xamsa" tarkibidagi qolgan boshqa dostonlarda ham aynan shu ruh borligini sezish mumkin.*

Dostonning muqaddimaviy boblaridan so'ng 12-52 boblarda asosiy voqealar bayoni keltiriladi. Doston Chin xoqoni ta'rifi, uning farzandsizligi va Farhodning tug'ilishi bayoni bilan boshlanadi. Shundan so'ng 14 yoshiga kelib Farhod qalbida ishq o'ti alangalangani, otasi uning g'amini aritish maqsadida har xil chora tadbirlar ko'rgani, faqat Iskandar oynasigina Farhodda qiziqish uyg'ota olganligi voqealari bayoni keltiriladi. (12-bobdan 19-bobgacha)

20-bobdan boshlab to 29-bobgacha, uning ishq tilsimini ochish uchun ma'naviy kamolot bosqichlarini bosib o'tishi, ya'ni o'z nafsini yengish uchun ajdarho, Ahriman dev, temir odamni yengani va Suqroti hakim g'origa yetib, ko'zgu tilsimini bilishga muvaffaq bo'lgani voqealari keltiriladi.

30-bobdan 35-bobgacha esa Farhodning ne-ne qiyinchiliklar bilan Arman yurtiga yetib kelgani-yu, u yerda ojiz tog' yo'nuvchilarni ko'rgani va o'z ilm-u hunarini ishga solib tog'lar orasidan "Bahrin-najot" hovuzini qazgani, Shirinning sevgisiga sazovvor bo'lgani bayon qilinadi.

36-bobdan boshlab asarga Xusrav Parvez obrazi kirib keladi va ayni shu o‘rindan boshlab ikki oshiq o‘rtasida kechadigan Laylining muhabbati uchun kurash bayoni keltiriladi va asar oxiri har uchala qahramon o‘limi bilan yakun topadi. Farhodning vafoti 49-bobda, o‘gli Sheruya tomonidan o‘ldirilgan Xusravning vafoti 51-bobda, Farhod o‘limi xabarini eshitgan Shirin vafoti bayoni esa 52-bobda keltiriladi. Shu bilan dostonning asosiy voqealar bayoni yakunlanadi hamda xotimaviy boblar keltiriladi.

Xotimaviy boblar 53-54 boblarni o‘z ichiga oladi. 53-bobda Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li Shoh G‘arib Mirzo madhi va shoirning unga nasihatlarini bayoni keltiriladi va quyidagicha ta’riflanadi: “U shunday bir gul shahzodadir. Shahzoda emas, malohatning konidir. U gapga kirganda esa, uni ravonlik dengizi deb ataging keladi. Chiroyli gaplari bilan u shohga tenglashib qolgan bo‘lib, u barcha shahzodalarning ichida eng ajoyibi, ismi Shoh G‘aribdir”.

Shoh G‘arib Mirzo haqida Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” tazkirasida ham keng to‘xtaladi uning ijod bilan ham shug‘ illanishi Navoiy e’tiboriga tushib, fors-tojikdagi asarlaridan ko‘plab namunalarni tanlab, tazkirasiga kiritadi. “Shoh g‘arib Mirzo – sho‘x tab’lig‘ va mutasarrif zehnik va nozik tahayyulluq va daqiq taaqqulluq yigitdur. Nazm va nasrda naziri ma’dun va mutahayyila va hofizada adili noma’lum. Ov va qush xotirig‘a marg‘ub va qurro va o‘qush ko‘ngliga mahbub. Devon ham jam qilibdur. Yaxshi matlallari bu muxtasarga sig‘mas, magar yana bir kitob bitilg‘ay” (Alisher Navoiy. Asarlar 12.tom, 175-bet). Shohg‘arib Mirzo tabiatan boshqa shahzodalardan, shuningdek, o‘z aka-ukalaridan farq qiladi. Uning mayli ov, qush janglari singari ko‘ngil ochish o‘yinlaridan anchagina uzoqda. Bularning teskarisi o‘laroq, uning o‘qish, o‘rganish, ijod bilan band bo‘lishga rujuyi baland. Shohg‘arib Mirzo tabiatidagi bu tomonlar Alisher Navoiyga ma’qul bo‘ladi. Shuning uchun ham Navoiy Shohg‘arib Mirzoni ayricha ehtirom ila xotirlaydi. Manbalarning guvohligidan ayonki, Shohg‘arib Mirzo shunchaki ermak yoki shuhrat uchun onda-sonda badiiy ijodga murojaat qilgan shahzodalardan emas. Aksincha, ijod dardi uning asosiy mashg‘uloti, qalb zarurati sifatida doimiy hamdami bo‘lgan.

Navoiy “Farhod va Shirin” da Shoh G‘arib Mirzoga kuyunchaklik bilan quyidagicha nasihatlar qiladi:

- Agar sen quyosh bo‘lishni istasang, kamolot kasb et. Kamolot kasb etganingdagina, senga hech qanday uqubat yuzlanmaydi. Kimki o‘qib-o‘rganishdan erinsa, ilm ahli o‘zi hijolat bo‘lib qoladi.

- Zararli narsalardan qo‘rq. Mijozing bir narsadan lazzat topadigan bo‘lsa, unga sen ha deb mayl ko‘rsataverma. Hikmatning qoidalarini bajarishda shunday chaqqon bo‘l. Shunda doim istagingga yetasan, sog‘lom bo‘lasan.

- Bizning shohimiz dinni ham dunyoni ham egallagan. Agar sen ham bu ikki ishni orzu qilsang, shoh nima qilsa, unga ergash, taqlid qil.

Xulosa. Bundan ko‘rinadiki, Navoiy Shoh G‘arib Mirzoga o‘zgacha mehr bilan qaragan, uning toleyi baland bo‘lishi, Farhoddek ulug‘ ishlar qilishga moyil bo‘lishini

istagan. Umuman olganda, Navoiy birgina shu asari bilan emas, balki qolgan ijod namunalari orqali ham Husayn Boyqaro va uning avlodlariga odil podshoh qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligi haqida takror-takror uqtirishga harakat qilgan.

So'ngi 54-bob asar xotmasi bo'lib, Navoiy yozgan ushbu asari bilan quyosh nuri osmonni qoplagani kabi uning mazkur dostonini o'qigan xalqning ko'zi ham ma'rifat nurlari bilan yorishib ketishini istaydi va yana kamtarlik bilan agarda u davlat ishlari-yu, o'ziga qasd qiluvchilarning fisq-fujurlaridan holi bo'lganida edi bundanda yaxshiroq asar bitishi mumkin ekanligini ta'kidlaydi. Ulug' shoir tomonidan bitilgan shunday ulug' asar shu bilan o'z nihoyasiga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шамсиев П., Ғаниева С. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 8. Хамса: Фарҳод ва Ширин. – Т.: «Фан», 1991. В. – 544.
2. Alisher Navoiy. 2006. Farhod va Shirin. Nasriy bayoni bilan. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). – T.: Yangi asr, 2006.
4. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: 2006.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934